



XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 15-yanvar

VII-20-7-4-0-K/26

Qashqadaryo viloyati

Viloyatdagi davlat ko‘chmas mulkidan foydalanlik uchun 2026-yilda qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-iyundagi PF-98-sonli farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrda 660-sonli qaroriga muvofiq hamda Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasining 2025-yil 23-dekabrda 05-24/727-sonli xatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasi boshlig‘i S.Toshevning hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyatdagi davlat ko‘chmas mulkidan foydalanlik uchun 2026-yil 1-yanvardan qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalari **1-ilovaga**;

ijara to‘lovi stavkalariga qo‘llaniladigan oshiruvchi koeffitsiyentlari **2-ilovaga**;

bino va inshootlarga biriktirilgan, shuningdek, alohida ajratilgan maydonlar (asfaltlangan yoki betonlashtirilgan hududlar)da radio, uyali va

peyjing aloqa antennalari o'rnatilganda foydalaniladigan maydon uchun ijara to'lovlari hisoblanishi tartibi **3-ilovaga**;

ijara to'lovi stavkalariga qo'llaniladigan oshiruvchi koyeffitsiyentlarni hisoblash tartibi **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasi (S.Toshev):

ijara to'lovi qiymatini belgilashda 1-ilovada ko'rsatilgan ko'chmas mulk uchun qo'llaniladigan eng kam stavkalardan eng kam miqdor sifatida foydalansin;

viloyat hududidagi madaniy meros obyektlarini Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-oktabrdagi 881-sonli qarori talablari asosida ijaraga berilishini ta'minlasin;

Bunda davlat mulki bo'lgan binolar va xonalarda joylashgan budjet tashkilotlari uchun ijara to'lovi nol stavkada qo'llansin.

4. Davlat mulkini balansda saqlovchilarning mansabdor shaxslari joriy yilning har choragida kamida bir marta o'zining tasarrufida bo'lgan davlat mulkini xatlovdan o'tkazgan holda foydalanilmayotgan davlat mulki, shuningdek, ijaraga berilayotgan mol-mulkning "tiklanish qiymati" to'g'risidagi ma'lumotlarni Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasiga o'z vaqtida, to'liq va ishonchli taqdim etishlari uchun shaxsan javobgar ekanligi belgilansin va davlat mulkini ijara shartnomasi tuzmasdan ijaraga berishi, ijara shartnomasida ijaraga berilgan mulkning parametrlari va soni ataylab noto'g'ri qayd etilganligi, buning natijasi ijara to'lovining yashirilishiga olib kelganligi uchun qonun hujjatlarida tegishli javobgarlik belgilanganligi haqida ogohlantirilsin.

5. Ushbu qaror bajarilishini nazorat qilish va ijrosini ta'minlash xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi O.Ravshanov va viloyat hokimining birinchi o'rinbosari A.Qodirov zimmasiga yuklatilsin.

6. Viloyat hokimining 2025-yil 27-yanvardagi "Qashqadaryo viloyatida 2025-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining

eng kam stavkalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 42-4-0-Q/25-son qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

8. Ushbu qaror rasmiy veb-sayt va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinsin.

Kengash raisi



**XUSHMURODOVA
ISMIGUL
BERDIMURODOVNA**

Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati
Kengashining
2026-yil 15-yanvardagi
VII-20-7-4-0-K/26 -son qaroriga
1-ilova

T / r	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	Viloyat markazi Qarshi shahri uchun 2026-yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari (QQS bilan birga)	Viloyatning tumanlari va shaharlari uchun 2026-yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari (QQS bilan birga)
Ishlab chiqarish			
1	Ishlab chiqarish turlari bo'yicha (kimyo, neft, mashinasozlik, hisoblash texnikalari, traktorsozlik, maishiy anjomlar, sanitariya, metall, tamaki, elektronika va santexnika mahsulotlari va jihozlari)	18 200	12 700
2	Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	50 700	36 800
3	Elektr energiya ishlab chiqarish	16 000	11 300
Qurilish sanoati			
4	Qurilish mahsulotlari sanoati (asfalt, bitum, tosh saralash, shlakoblok, penablok, gazoblok, suvoq qorishmalari, gipsokarton, tunikafon, shifer, sement, senvich panel ishlab chiqarish va yog'ichni qayta ishlash)	18 200	12 700
5	Deraza, eshiklar va mebel ishlab chiqarish sanoati (yog'ochdan)	53 300	34 600
6	Deraza, eshik va mebellar ishlab chiqarish (plastik, alyumin va MDFdan)	84 800	48 500
Yengil sanoat			
7	Yengil sanoat turlari bo'yicha (to'qimachilik, tikuvchilik, charm, mo'yna, poyabzal, selluloza-qog'oz sanoati)	18 200	12 700
Oziq-ovqat sanoati			

8	Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish (yog', go'sht, baliq, ichimlik, un, qandolat mahsulotlari hamda omuxta-yem sanoati)	18 200	12 700
9	Chorva (qo'y) mollarini so'yish va sotish (jumladan qushxona)	45 200	32 500
10	Sut mahsulotlari sanoati	31 300	22 600
11	Non va qolipli (bulka) non mahsulotlari ishlab chiqarish	45 200	28 200
Qishloq xo'jaligi			
12	O'simlikshunoslik (o'rmon xo'jaligi va bog'lar) 1 gektar yer maydoni uchun	6 456 200	4 624 000
13	Issiqxona xo'jaligi 1 gektar yer maydoni uchun	16 101 000	11 101 000
14	Chorva va parranda yetishtirish (boqish)	8 800	6 300
15	Baliqchilik (shu jumladan sun'iy maydon) 1 gektar uchun	16 769 200	11 163 800
16	Asalarichilik 1 gektar yer maydoni uchun	4 196 900	3 005 900
Transport va aloqa			
17	Transport infratuzilmalari (avtopark, taksopark, avtomobil to'xtash joylari va garaj)	18 600	12 700
18	Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari)	8 200	4 100
19	Avtomobillarni yuvish	59 100	36 500
20	Avtomobillarga yoqilg'i quyish (benzin, dizel)	56 500	42 100
21	Avtomobillarga yoqilg'i quyish (gaz quyish shoxobchalari)	63 000	45 600
22	Elektromobillarni quvvatlash shoxobchasi	27 400	19 900
23	Yengil avtomashinalar va boshqa turdagi transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	58 900	41 300
24	Vulkanizatsiya, payvandlash, chilangarlik ishlarining barcha turlari	44 800	31 800
25	Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va transport xizmatlari	29 100	21 000
26	Pochta va kurerlik aloqasi	40 900	29 100
27	Elektr-simli aloqa (WIFI Router)	36 800	26 200
28	Radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud	154 600	110 800

	doirasida)		
Savdo va umumiy ovqatlanish			
29	Ulgurji savdo	52 400	36 400
30	Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalga oshiruvchi ulgurji savdo bozorlaridagi savdo do'konlari	116 100	83 000
31	Chakana savdo	52 400	36 400
32	Sotuvchisiz elektron uskunalalar orqali chakana savdoni tashkil etish	109 800	89 800
33	Umumiy ovqatlanish (Tabiiy va sun'iy suv havzalari hamda daryo bo'ylarida baliq mahsulotlari va taomlari savdosi, fast fud)	52 400	36 400
34	Kitob do'konlari	6 300	4 700
35	Lombardlar	58 400	41 800
Xizmat ko'rsatish			
36	Xizmat ko'rsatish turlari bo'yicha (xo'jalik buyumlarini ijaraga berish, nusxa ko'chirish, ko'chmas mulklar bilan bog'liq xizmatlar, reklama va ko'rgazmalar, geodeziya va gidrometeorologiya, ichimlik suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarish, kanalizatsiya xizmatlari)	52 400	37 100
37	Kompyuter o'yinlarini tashkil etish	67 800	48 700
38	Mehmonxona xo'jaligi	51 700	36 900
39	Umumiy yashash joylari (shu jumladan talabalar va o'quvchilar turar joylari)	45 000	31 000
40	Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlari (veterinariya xizmatlari, kimyoviy tozalash va bo'yash, avtomobil, velosiped, samokatlarni ijaraga berish, paxta va jun tozalash va titish hamda ko'ngilochar qurilmalar joylashtirish)	30 200	21 500
41	Mashina va uskunalarni ta'mirlash	17 600	12 400
42	Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari	35 900	26 000
43	Poligrafiya sanoati	39 300	32 500
44	Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar	35 900	26 000

45	Suv bo'yida xizmat ko'rsatish joylari (plyaj zonalari, baliq ovlash maskanlari, qayiqda suzish va suv sayohati va suv bo'yida turizm xizmatlarini tashkil etish)*	32 300	23 000
46	Quyosh panellari va suv isitish qurilmalar joylashtirish	7 700	5 600
47	Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelezi, poyabzallarni ta'mirlash ustaxonasi	44 300	31 600
48	Hammomlar	77 800	55 600
49	Saunalar va basseynlar	155 000	111 100
Turizm xizmatlari			
50	Madaniy meros obyektlarida hunarmandchilik turlari bo'yicha (misgarlik, zargarlik, o'ymakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telpak, cho'girma, chopon va x.k)	48 200	37 700
51	Hunarmandchilik turlari bo'yicha (yodgorlik majmualari yasash, misgarlik, zargarlik, o'ymakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telpak, cho'girma, chopon va x.k)	42 800	30 500
52	Madaniy meros obyektlarida hostel va mehmonxona xizmatlarini tashkil etish	90 700	70 700
53	Madaniy meros obyektlarida savdo xizmatlarini ko'rsatish (esdalik buyumlari, sovg'alar, hunarmandchilik mahsulotlari va h.k)	70 800	50 800
54	Madaniy meros obyektlarida umumiy ovqatlanish shoxobchalari (restoran, kafe, fast-fud va h.k)	80 700	57 700
55	Madaniy ko'ngilochar markazlar (bilyard, o'yin avtomatlari, diskoteka)	51 700	36 900
Sog'liqni saqlash			
56	Davolash maskani (statsionar davolash)**	36 800	25 800
57	Davolash maskani (shu jumladan laboratoriya, operatsion blok, stamatologiya, fizioterapiya)	113 400	89 000
58	Tibbiy asbob uskunalari o'rnatish (massajlovchi stullar, MRT, UZI, MSKT, rentgen va boshqa qurilmalari)	140 300	115 500
59	Tibbiyot sanoati (Tibbiyot buyumlari, asbob uskunalari va dori vositalari ishlab chiqarish)	124 100	104 100

60	Fitobar	22 300	16 000
61	Dorixonalar (optika, tibbiyot anjomlari va jihozlari sotish)	60 900	32 700
62	Protez-ortopediya moslamalarini tayyorlash va ta'mirlash	36 200	25 800
63	Ijtimoiy-dorixonalar	26 700	16 800
Jismoniy tarbiya va sport			
64	Sport maydonlari (stadionlar)	32 800	27 200
65	Sport zallari (qo'l jangi, karate, kurash, sambo, erkin kurash va h.k)	17 900	12 700
66	Fitnes va yengil atletika zallari**	128 000	108 000
Ta'lim			
67	Nodavlat ta'lim tashkilotlari (oliy, o'rta va maktabgacha tarbiya muassasalari)**	36 200	25 800
68	Tayyorlov kurslari (IT, malaka oshirish va repitetorlik)	59 700	43 200
69	Oliy ta'lim muassasalarida umumiy ovqatlanish	36 500	25 400
70	O'rta maxsus ta'lim muassasalarida (jumladan maktablarda) umumiy ovqatlanish	23 800	17 000
71	Madaniyat va san'at	45 200	32 500
72	Ko'rgazmalar	34 900	26 100
73	Madaniy dam olishni tashkil etish (bog'lar, zooparklar, televideniye va radioyeshittirishlar redaksiyalari)	32 300	23 000
74	Kinostudiyalar, ovoz yozish studiyalari	51 700	36 900
75	Fan va ilmiy xizmatlar ko'rsatish	19 600	13 800
76	Avtomaktablar	28 700	16 400
77	O'quv amaliyot poligonlari (test tajriba va sinov maydonlari)	16 000	11 300
Moliya-kredit faoliyati			
78	Moliya, kredit va pensiya ta'minoti (sug'urtalash va auditorlik faoliyatidan tashqari)	45 200	32 500
79	Auditorlik faoliyati	45 200	30 400

80	Buxgalteriya va soliq servis xizmatlari	70 800	50 800
81	Marketing tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo'yicha maslahatxonalar	45 200	32 500
82	Bankomatlar	750 500	518 900
83	Paynetlar	150 500	103 900
84	Turli xizmat turlari uchun to'lov qabul qilish maskanlari (kassalar)	150 500	103 900
85	Front-ofislar (Banklar uchun)	55 200	45 200
86	Bank xizmatlari ofisi	51 500	36 400
87	Sug'urta faoliyati	38 900	32 500
88	Avia kassalar (shu jumladan temir yo'l, avtotransport va boshqalar)	70 800	50 800
Faoliyatning boshqa turlari			
89	Notarial xizmatlar	51 500	36 400
90	Sud va yuridik xizmat muassasalari hamda advokatlar kollegiyasi	38 900	28 200
91	Jamoat birlashmalari	13 100	9 100
92	Omborxonalar	50 600	36 400
93	Davlat korxonalar va muassasalari	19 600	13 800
94	Xususiy tashkilotlarga ofis	70 800	50 800
95	Arxiv xizmati	19 600	11 600
96	Tahririyat va nashriyotlar	26 000	18 500
97	Metallolom va ikkilamchi qog'oz (latta) mahsulotlarini to'plash joylari	26 000	18 500
98	Laboratoriyalar (Tibbiy xizmatlardan tashqari)	32 300	23 000

Izoh: Davlat mulkini ijaraga berishda imtiyozlar va preferensiyalar qo'llanishi qonunchilikda belgilangan tartiblarda amalga oshirilishi mumkin.

* O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.09.2023-yildagi "Davlatga tegishli suv havzalarini tadbirkorlik subektlariga "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali ijaraga berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida 441-son qaroriga asosan qo'shilgan faoliyat turlari.

*** Mazkur faoliyat turlari bo'yicha 4 va 5 toifadagi tumanlar hududidagi davlat mulki bo'lgan ijtimoiy soha obektlarini faqat o'z faoliyat yo'nalishini saqlagan holda ijaraga berishda amaldagi minimal stavkaga nisbatan 50 foiz imtiyoz qo'llaniladi.*

Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati
Kengashining
2026-yil 15-yanvardagi
VII-20-7-4-0-K/26 -son qaroriga
2-ilova

1. Ijara to'lovi stavkalariga qo'llaniladigan koyeffitsiyentlar

1.1. Hududiy zonalar koyeffitsiyenti (Kz):

T/r	Tuman (shahar)lar nomi	Zonalar	Hududiy zonalar koyeffitsiyenti
1	Qarshi shahri	1	2,5
	Shahrisabz shahri	1	2,5
	Beshkent shahri	2	2,2
	Kitob shahri	2	2,2
	Koson shahri	2	2,2
2	Qarshi tumani	3	1,8
	Koson tumani	3	1,8
	Muborak tumani	3	1,8
	Shahrisabz tumani	3	1,8
	Kitob tumani	3	1,8
	G'uzor tumani	3	1,8
	Kasbi tumani	3	1,7
	Chiroqchi tumani	3	1,5
	Ko'kdala tumani	3	1,5
	Yakkabog' tumani	3	1,5
	Nishon tumani	3	1,5
	Qamashi tumani	3	1,5
	Mirishkor tumani	3	1,5
3	Dehqonobod tumani	4	1,2

1.2. Binoning qurilish bo'yicha koyeffitsiyenti (Kq):

- alohida turgan bino, inshoot **1,5**
- binoning ichki qismida joylashgan va taqab qurilgan **1,3**
- binoning yuqori qismi, cherdak, bolaxona **0,9**
- ertula, yarimertula **0,5**

1.3. Tutashib ketgan hududdan foydalanish koyeffitsiyenti (Kh):

- yer maydoni mavjud bo'lganda **0,8**

1.4. Tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koyeffitsiyenti (Ko):

- asosiy avtotransport yo'llari bo'ylab joylashganda **0,5**
- ikkinchi darajali avtotransport yo'llari bo'ylab joylashganda **0,4**
- radio, uyali va peydjing aloqa antennalari o'rnatilganda **0,5**

**Radio, uyali va peydjing aloqa antenalari (texnik uskunalar)
o'rnatilganda foydalaniladigan maydon uchun ijara haqi to'lovlari hisoblash tartibi**

1. Davlat mulki bo'lgan bino va inshootlarning yuqori qismi, cherdak, bolaxona qismlarida o'rnatilganda:

$$T_s = E_s \times K_z \times (K_q + K_h + K_o)$$

T_s – bir yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovi tayanch stavkasi

E_s – bir yilga bir kv.metr uchun eng kam stavka (umumiy ijara maydoni tortqich qoziqlarning umumiy perimetri bo'yicha hisoblanadi)

K_z - hududiy zona koyeffitsiyenti

K_q - 0,9

K_h – 0

K_o – 0,5

2. Bino va inshootlarga biriktirilgan, shuningdek alohida ajratilgan maydonlarga o'rnatilganda:

$$T_s = E_s \times K_z \times (K_q + K_h + K_o)$$

T_s – bir yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovi tayanch stavkasi

E_s – bir yilga bir kv.metr uchun eng kam stavka (umumiy ijara maydoni tortqich qoziqlarning umumiy perimetri bo'yicha hisoblanadi)

K_z –hududiy zona koyeffitsiyenti

K_q – 0

K_h – 0,8

K_o – 0,5

3. Bino va inshootlarning ichki qismida joylashgan xonalarga texnik uskunalar o'rnatilganda:

$$T_s = E_s \times K_z \times (K_q + K_h + K_o)$$

T_s – bir yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovi tayanch stavkasi

E_s – bir yilga bir kv.metr uchun eng kam stavka

K_z – hududiy zona koyeffitsiyenti

K_q – 1,3

K_h – 0

K_o – 0,5

Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati
Kengashining
2026-yil 15-yanvardagi
VII-20-7-4-0-K/26 -son qaroriga
4-ilova

Ijara to'lovining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlarni hisoblash tartibi

Davlat ko'chmas mulkidan foydalanlik uchun ijara to'lovining eng kam miqdori quyidagicha hisoblab chiqiladi:

$$Ts=Es*Kz*(Kq+Kh+Ko)$$

Bunda:

Ts — davlat ko'chmas mulkidan foydalanlik uchun bir yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovining eng kam miqdori;

Es — davlat ko'chmas mulkidan foydalanlik uchun bir yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovining eng kam stavkasi;

Kz — hududiy zonalar koeffitsiyenti;

Kq — Qurilish turi bo'yicha koeffitsiyent;

Kh — tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti;

Ko — tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti (asosiy avtotransport yo'llari bo'ylab joylashish, ikkinchi darajali avtotransport yo'llariga chiqishda joylashish va boshqalar).

Qurilish turi bo'yicha koeffitsiyent (Kq), tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti (Kh) va tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti (Ko)ning yig'indisi 1 birlikdan kam bo'lgan taqdirda, yaxlitlangan holda 1 birlikka teng hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan koeffitsiyentlar quyidagilarni ifodalaydi, jumladan:

- Hududiy zonalar koeffitsiyenti (Kz) – viloyat, tuman (shahar) markazlari hamda chekka hududlar, shu jumladan qishloq va ovullar uchun ularning rivojlanganlik darajasidan kelib chiqqan holda belgilanadigan koeffitsiyent;

- Qurilish turi bo'yicha koeffitsiyent (Kq) – davlat mulki obektini yaxlit holatda yoki uning bir qismini (yertulasi, yarim yer to'lasi, bino ichidagi xonasi, boloxonasi, tom qismi) hamda obektga biriktirilgan yer maydoni, shu jumladan beton (asfalt) maydoni bo'yicha belgilanadigan koeffitsiyent.

Bunda, ijaraga oluvchi davlat mulki obyektini to'liq ijaraga olganda (shartnoma muddati davomida balansda saqlovchi obyektidan foydalanish imkoni cheklanganda) qurilish turi bo'yicha alohida turgan bino koeffitsiyenti qo'llaniladi;

Ijaraga oluvchi davlat mulki obyektining bir qismini yertulasi, yarim yer to'lasi, bino ichidagi xonasi, boloxonasi, tom qismi yoki biriktirilgan yer maydoni,

shu jumladan beton (asfalt) maydonini ijaraga olganda va ushbu maydonlardan balansda saqlovchi bilan birgalikda foydalanilganda qurilish turi bo'yicha koyeffitsiyent ijaraga berilgan maydon obektning joylashgan qismi asosida qo'llaniladi.

- Tutashib ketgan hududdan foydalanish koyeffitsiyenti (Kh) - ushbu koyeffitsiyent davlat mulki obyektini yaxlit holatda (to'liq) ijaraga berilganda (shartnoma muddati davomida balansda saqlovchi obyektidan foydalanish imkoni cheklanganda) qo'llanilmaydi qolgan holatlarda (obyektning bir qismi berilganda) qo'llaniladi.

Ushbu koyeffitsiyent qo'llanilmagan hollarda obyekt hududidagi betonlashtirilgan (asfaltlangan) maydonlari ijara maydoni sifatida shartnomaga kiritiladi va belgilangan tartibda to'lov undiriladi.

- Tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koyeffitsiyenti (Ko) - ushbu koyeffitsiyent obekt joylashgan manzilining tijoriy faoliyat uchun qulaylik darajasini belgilaydi.

Bunda, ijaraga berilgan obyekt xalqaro va mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo'llariga tutash hududlarda joylashgan bo'lsa asosiy avtotransport yo'lida joylashgan hisoblanadi. Mahalla, qishloq va ovullarning ichki yo'llari (ko'chalari)da joylashgan bo'lsa ikkinchi darajali avtotransport yo'lida joylashgan hisoblanadi.